PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA SHAXSIY-KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PSIXOKORREKSION DASTURNING SAMARADORLIGI

Ismoilov Alisher Ulug‘bekovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Orcid ID: https://orcid.org/0009-0002-3915-232X
https://doi.org/10.5281/zenodo.22922018

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturning konseptual asoslari va uning amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi — o‘quvchilardagi egoistik xulq-atvor ko‘rsatkichlarini kamaytirish va altruistik munosabatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixotexnologik modelning ta’sirchanligini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda 220 nafar akademik litsey o‘quvchisi ishtirok etib, ulardan egoizm ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar aniqlovchi va nazorat guruhlariga ajratildi. “Dispozitsion egoizm” va “Altruizm-egoizm” so‘rovnomalari hamda B.Smekal va M.Kuchera metodikasi qo‘llanildi, natijalar SPSS 26.0 dasturida statistik tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, eksperimental guruhda altruizm ko‘rsatkichi ishonchli darajada oshgan ($t=2,98$; $p<0,01$), egoizm ko‘rsatkichi esa sezilarli kamaygan, nazorat guruhida esa bunday farq statistik ahamiyatga ega bo‘lmagan. Bu natijalar tuzilgan psixokorreksion dasturning nazariy asoslanganligi va amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.
Kalit so‘zlar: shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik, psixokorreksion dastur, egoizm, altruizm, akademik litsey o‘quvchilari, refleksiv empatiya, eksperimental guruh, nazorat guruhi, psixotexnologik model, ijtimoiy-psixologik moslashuv.

Аннотация. В данной статье проанализированы концептуальные основы и практическая эффективность психокоррекционной программы, направленной на развитие личностно-профессиональной подготовки учащихся академического лицея Министерства внутренних дел. Цель исследования заключается в определении результативности психотехнологической модели, направленной на снижение показателей эгоистического поведения и развитие альтруистического отношения у учащихся. В исследовании приняли участие 220 учащихся академического лицея, из числа которых учащиеся с высокими показателями эгоизма были разделены на экспериментальную и контрольную группы. Были применены опросники «Диспозиционный эгоизм» и «Альтруизм-эгоизм», а также методика Б.Смекала и М.Кучеры; результаты обработаны в программе SPSS 26.0. Согласно результатам, в экспериментальной группе показатель альтруизма достоверно повысился ($t=2,98$; $p<0,01$), а показатель эгоизма достоверно снизился, тогда как в контрольной группе подобные различия не имели статистической значимости. Полученные данные подтверждают теоретическую обоснованность и практическую эффективность разработанной программы.
Ключевые слова: личностно-профессиональная подготовка, психокоррекционная программа, эгоизм, альтруизм, учащиеся академического лицея, рефлексивная эмпатия, экспериментальная группа, контрольная группа, психотехнологическая модель, социально-психологическая адаптация.

Abstract. This article analyzes the conceptual foundations and practical effectiveness of a psychocorrectional program aimed at developing the personal and professional training of pupils of

the academic lyceum of the Ministry of Internal Affairs. The purpose of the study is to determine the effectiveness of a psychotechnological model directed at reducing indicators of egoistic behavior and developing altruistic attitudes among pupils. The study involved 220 academic lyceum pupils, from among whom those with high egoism indicators were divided into experimental and control groups. The "Dispositional Egoism" and "Altruism-Egoism" questionnaires, together with the method of V. Smekal and M. Kučera, were applied, and the results were processed in SPSS 26.0. According to the results, the altruism indicator increased significantly in the experimental group ($t=2.98$; $p<0.01$), while the egoism indicator decreased significantly; in the control group, such differences were not statistically significant. These findings confirm the theoretical validity and practical effectiveness of the developed program.

Keywords: personal and professional training, psychocorrectional program, egoism, altruism, academic lyceum pupils, reflexive empathy, experimental group, control group, psychotechnological model, socio-psychological adaptation.

Kirish. Zamonaviy o‘zbek jamiyatida yoshlarni har tomonlama barkamol, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk va o‘z kasbiga ongli tayyorlangan shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu boradagi vazifalar, ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi akademik litseylarda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yerda tahsil olayotgan o‘quvchilar kelajakda huquqni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritishga tayyorlanadi va ularning shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik darajasi nafaqat o‘zlarining, balki jamiyat xavfsizligining ham muhim omiliga aylanadi. O‘quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonini sekinlashtiruvchi psixologik omillardan biri sifatida egoizm fenomeni alohida o‘rin tutadi. Egoistik ustanovkalar shaxslararo munosabatlarda hamkorlikka, o‘zaro yordamga va ijtimoiy mas’uliyatga bo‘lgan ehtiyojni pasaytiradi, bu esa huquqni muhofaza qilish sohasi kabi yuqori darajada jamoaviy hamkorlik va empatiyani talab qiluvchi kasblar uchun jiddiy to‘siq hisoblanadi. Shu sababli o‘quvchilarda egoizm ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslangan psixokorreksion vositalar yordamida kamaytirish va ularning o‘rnida altruistik xulq-atvor shakllarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmoqda.

Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturning konseptual asoslari yoritilib, ushbu dasturning amaliy samaradorligi muallif tomonidan ilgari olib borilgan dissertatsion tadqiqot doirasidagi eksperimental natijalar asosida statistik jihatdan asoslab beriladi.

Maqolaning ilmiy vazifasi uch jihatni qamrab oladi: birinchidan, akademik litsey o‘quvchilarida egoizmni korreksiyalashning nazariy-konseptual asoslarini tizimlashtirish; ikkinchidan, ushbu asoslarga tayangan holda ishlab chiqilgan psixokorreksion dasturning tarkibiy tuzilishini ochib berish; uchinchidan, dastur samaradorligini eksperimental guruh va nazorat guruhi natijalarini qiyosiy statistik tahlil qilish orqali empirik jihatdan asoslash. Bunday kompleks yondashuv nafaqat nazariy xulosalar, balki amaliyotda sinovdan o‘tgan aniq vositani ham taqdim etish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma’naviy, intellektual va axloqiy jihatdan komil inson bo‘lib voyaga yetishiga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Ayni paytda xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlar xulq-atvorida internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik va o‘zgalar manfaatiga beparvo yondashuv kabi holatlarning ortib borishi kuzatilmoqda, bu esa yosh avlodda egotsentrik va egoistik xulq shakllarining yuzaga kelish xavfini kuchaytiradi.

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘ziga xos ta’lim-tarbiya muhitiga ega bo‘lib, bu yerda o‘quvchilarning kelgusi kasbiy faoliyati fuqarolar bilan bevosita muloqot, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ziddiyatli vaziyatlarda xolis va insonparvarlik nuqtayi nazaridan qaror qabul qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli bunday o‘quv muassasalarida o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ularda altruistik munosabat, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarni maqsadli shakllantirish alohida dolzarblik kasb etadi.

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda “Men” obrazini mustahkamlash ehtiyoji kuchayadi va ayrim hollarda bu jarayon egoistik ustanovkalarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. P.M.Yakobsonning fikricha, o‘smirlik davri boshqa yosh davrlariga qaraganda o‘zgalarga yaxshilik qilish va hamdard bo‘la olish qobiliyatining faol shakllanishi bilan ham ajralib turadi. Shu boisdan o‘smirlik davridagi o‘quvchilar bilan ilmiy asoslangan, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan psixokorreksion dastur orqali ishlash zaruriyati yuzaga keladi. Mazkur dasturning ilmiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini empirik tadqiqot natijalari orqali tasdiqlash tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Shaxsdagi egoizm va altruizm muammosi psixologiya fanida uzoq tarixga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. K.Muzdibayev egoizmni shaxsning o‘z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo‘yishga qaratilgan barqaror xulq-atvor yo‘nalishi sifatida tavsiflab, uning ijtimoiy-demografik omillar bilan bog‘liqligini asoslab bergan. L.I.Bojovichning fikricha, o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini tasdiqlash istagi kuchayadi, bu esa ayrim hollarda tengdoshlar oldida ustunlikka intilish va egoistik xulq ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin.

N.B.Burtovaya o‘smirlik davridagi egotsentrizmni korreksiyalashning amaliy metodlarini tadqiq etib, bunday ishning natijadorligi tizimli va guruhiy shaklda tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali oshishini ko‘rsatgan. Shaxs xulq-atvorini korreksiyalashning nazariy asoslaridan biri sifatida E.Bernning transakt tahlil nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs xulqi “Ota-ona”, “Bola” va “Katta odam” ego-holatlari o‘rtasidagi muvozanat orqali namoyon bo‘ladi, korreksion ishning maqsadi esa mijozda “Katta odam” holatini — ya’ni voqelikni ob’ektiv baholash va mustaqil, mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini — mustahkamlashdan iborat bo‘ladi. L.Z.Levit o‘z tadqiqotlarida egoizm, shaxsiy o‘ziga xoslik va narsissizm o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, sog‘lom shaxsiy manfaatni patologik egoizmdan farqlash zarurligini ta’kidlaydi.

O‘zbek psixologiya maktabida N.B.Atabayeva shaxsda altruizm rivojlanishining psixologik xususiyatlarini tadqiq etib, altruistik xulqni shakllantirishda refleksiv empatiya va ijtimoiy perseptsiyaning muhim o‘rin tutishini asoslab bergan. Muallifning ilgari e’lon qilingan ishlarida akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar tahlil qilingan bo‘lib, mazkur maqola ushbu tadqiqotlar mantiqiy davomi sifatida o‘quvchilarda egoizmni korreksiyalash orqali shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy dasturni taqdim etadi.

Zamonaviy psixologik amaliyotda shaxs xulq-atvorini tushuntirishda faqat umumiy nazariy mulohazalarga emas, balki real vaziyat omillari va empirik ko‘rsatkichlarga tayanish zarurligi keng e’tirof etilgan yondashuv hisoblanadi. Bu esa aynan huquqni muhofaza qilish sohasiga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar bilan ishlashda amaliy psixokorreksion dasturlarning ilmiy asoslanganligini ta’minlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida C.D.Betsonning “empatiya-altruizm” gipotezasi alohida e’tiborga loyiq. Ushbu gipotezaga ko‘ra, boshqa insonning holatiga chin dildan hamdardlik bildirish (empatik tashvish) shaxsda o‘z manfaatidan qat’i nazar yordam ko‘rsatishga undovchi haqiqiy altruistik motivatsiyani keltirib chiqaradi. Ushbu nazariy qarash bizning dasturimizda refleksiv empatiyani

shakllantirishga alohida mashg‘ulotlar ajratilganligini nazariy jihatdan asoslaydi, chunki empatik tashvishni kuchaytirish orqaligina barqaror altruistik ustanovkalarga erishish mumkin.

Metodologiya. Tadqiqot Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotga jami 220 nafar o‘quvchi (125 nafar qiz bola, 95 nafar o‘g‘il bola) jalb qilindi. Ularning barchasida dastlab “Dispozitsion egoizm” va O.F.Potyomkina tomonidan ishlab chiqilgan “Altruizm-egoizm” so‘rovnomalari o‘tkazilib, egoizm ko‘rsatkichi nisbatan yuqori bo‘lgan o‘quvchilar aniqlandi. Ushbu o‘quvchilar ikki guruhga — eksperimental guruh (E.G.) va nazorat guruhi (N.G.) ga ajratildi. Eksperimental guruh bilan muallif tomonidan ishlab chiqilgan psixokorreksion dastur asosida mashg‘ulotlar olib borildi, nazorat guruhi esa ushbu dasturda ishtirok etmadi.

Shaxs yo‘nalganligini aniqlash uchun B.Smekal va M.Kuchera metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika 27 ta savoldan iborat bo‘lib, har bir savolga uch variantli javob tizimi orqali respondentning o‘ziga, muloqotga yoki faoliyatga yo‘nalganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqilgan psixokorreksion dastur kognitiv, affektiv va konativ sohalarni izchil qamrab oluvchi 8 ta mashg‘ulotdan iborat bo‘lib, ular “Tanishuvlar mamlakati”, “O‘zgalarni tushunib, o‘zimni tushunaman”, “Mening olamim”, “O‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni rivojlantirish”, “Men — o‘zimni anglayman”, “Yaxshilik va yomonlik haqida ertak”, “Maqollarda jamlangan hikmat” va “Xayrlashuv” deb nomlandi. Har bir mashg‘ulot taxminan 1 soat davom etib, refleksiv empatiya, ijtimoiy perseptsiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratildi.

Dastur yakunlangach, aniqlovchi tajribada qo‘llanilgan so‘rovnomalar ikkala guruhda ham qayta o‘tkazildi (nazorat tajriba). Olingan natijalar SPSS 26.0 dasturida Styudent t-kriteriysi yordamida statistik tahlil qilindi, farqlarning ishonchliligi $p<0,01$ va $p<0,05$ darajalarida baholandi.

Tadqiqot jarayonida psixologik tadqiqotning etik tamoyillariga qat’iy amal qilindi: o‘quvchilarning tadqiqotda ishtirok etishi ixtiyoriy asosda tashkil etildi, ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlandi, so‘rovnoma va mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarga hech qanday psixologik yoki jismoniy zarar yetkazilmasligi ta’minlandi. Nazorat guruhi o‘quvchilari bilan ham tadqiqot yakunidan so‘ng qisqartirilgan shaklda psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘tkazildi, bu esa tadqiqotning ijtimoiy-etik adolat tamoyiliga mos kelishini ta’minladi.

Natijalar va ularning tahlili. Aniqlovchi va nazorat tajribalar natijasida eksperimental hamda nazorat guruhlarida olingan o‘rtacha ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

Akademik litsey o‘quvchilarida psixokorreksion dastur ta’sirida altruizm va egoizm ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, N=220

Jadval 1.

Shkalalar	Aniqlovchi tajriba	Nazorat tajriba	t
Altruizm (E.G.)	7,01	9,41	2,98**
Egoizm (E.G.)	5,57	3,17	2,98**
Altruizm (N.G.)	8,23	8,58	1,03
Egoizm (N.G.)	4,35	4,00	1,02


Izoh: ** – $p<0,01$. E.G. – eksperimental guruh; N.G. – nazorat guruhi.

Jadval 1 natijalaridan ko‘rinadiki, eksperimental guruhda altruizm ko‘rsatkichining o‘rtacha arifmetik qiymati aniqlovchi tajribada 7,01 dan nazorat tajribada 9,41 gacha ortgan (t=2,98; p<0,01). Shu bilan birga, ushbu guruhda egoizm ko‘rsatkichi 5,57 dan 3,17 gacha ishonchli darajada kamaygan (t=2,98; p<0,01). Nazorat guruhida esa altruizm ko‘rsatkichi 8,23 dan 8,58 gacha (t=1,03; ahamiyatsiz), egoizm ko‘rsatkichi esa 4,35 dan 4,00 gacha (t=1,02; ahamiyatsiz) o‘zgargan bo‘lib, bu farqlar statistik jihatdan ishonchli emas.

Olingan natijalarning vizual tasviri 1-rasmda keltirilgan.

Aniqlovchi va nazorat tajribalarda altruizm-egoizm ko‘rsatkichlarining dinamikasi

Rasm 1.



Olingan farqlarning statistik ishonchliligini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun t-kriteriysi qiymatlarini erkinlik darajasi (df=218) uchun jadval qiymati (t_jadv≈2,60, p<0,01 uchun) bilan solishtirish mumkin. Eksperimental guruhda qayd etilgan t=2,98 ko‘rsatkichi jadval qiymatidan yuqori bo‘lib, bu farqning tasodifiy emasligini, balki dastur ta’sirining statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa t=1,03 va t=1,02 ko‘rsatkichlari jadval qiymatidan sezilarli darajada past bo‘lib, bu guruhdagi o‘zgarishlarning tasodifiy tebranishlar doirasida ekanligidan dalolat beradi.

1-rasmda aks etganidek, eksperimental guruhda altruizm ko‘rsatkichining sezilarli o‘sishi va egoizm ko‘rsatkichining keskin pasayishi kuzatiladi, bu esa dasturning maqsadli ta’siri natijasida yuzaga kelgan o‘zgarish ekanligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhidagi ko‘rsatkichlar esa deyarli o‘zgarishsiz qolgan, bu esa aniqlangan farqlarning tabiiy yosh dinamikasi emas, aynan psixokorreksion dastur ta’siri natijasi ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, B.Smekal va M.Kuchera metodikasi natijalari eksperimental guruh o‘quvchilarida dastur yakunidan so‘ng “o‘ziga yo‘nalganlik” ko‘rsatkichining nisbatan pasayganini, “muloqotga yo‘nalganlik” va “faoliyatga yo‘nalganlik” ko‘rsatkichlarining esa oshganini namoyon etdi, bu o‘quvchilarda hamkorlikka, o‘zaro yordamga va vazifani sifatli bajarishga bo‘lgan yo‘nalishning kuchayganidan dalolat beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asoslangan va tizimli tarzda tashkil etilgan psixokorreksion dastur akademik litsey o‘quvchilarida egoizm ko‘rsatkichlarini kamaytirish va altruistik xulq-atvorni rivojlantirishda samarali vosita bo‘la oladi. Bu natija K.Muzdibayev va N.B.Burtovayaning fikrlari bilan mos kelib, egotsentrik va egoistik xulq-atvorni faqat nazariy

tushuntirish orqali emas, balki amaliy, guruhiy shaklda tashkil etiladigan mashg‘ulotlar orqali korreksiyalash mumkinligini tasdiqlaydi.

E.Bernning transakt tahlil nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, dasturimizning samaradorligi eksperimental guruh o‘quvchilarida “Katta odam” ego-holatining — ya’ni vaziyatni ob’ektiv baholash, o‘z xulqiga mas’uliyat bilan yondashish qobiliyatining — mustahkamlanganligi bilan izohlanishi mumkin. Nazorat guruhida ishonchli o‘zgarishlarning kuzatilmaganligi esa egoizm ko‘rsatkichlarining o‘z-o‘zidan, maxsus psixologik ta’sirsiz pasaymasligini ko‘rsatadi, bu esa maqsadli korreksion ishning zarurligini yana bir bor asoslaydi.

C.D.Bətsonning empatiya-altruizm gipotezasi nuqtayi nazaridan qaraganda, dasturimizdagi “O‘zgalarni tushunib, o‘zimni tushunaman” va “Men — o‘zimni anglayman” kabi mashg‘ulotlar aynan empatik tashvishni kuchaytirishga xizmat qilgan, bu esa eksperimental guruhda kuzatilgan altruizmning o‘sishi va egoizmning pasayishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan tushuntiradi. Boshqacha aytganda, dastur natijasi tasodifiy emas, balki aniq psixologik mexanizm — empatik tashvishning faollashuvi — orqali yuzaga kelgan deb hisoblash mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqotning bir qator cheklovlarini ochiq tan olish lozim. Birinchidan, tadqiqot bitta o‘quv muassasasi doirasida olib borilgani sababli natijalarni barcha akademik litseylarga bir xilda umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, qo‘llanilgan so‘rovnomalar o‘z-o‘zini baholashga asoslangan bo‘lib, bu respondentlarning ijtimoiy maqbul javob berish tendensiyasidan holi emas. Uchinchidan, dastur ta’sirining uzoq muddatli barqarorligi (masalan, 6–12 oydan so‘ng) mazkur tadqiqotda o‘rganilmagan bo‘lib, bu keyingi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, dastur davomida qo‘llanilgan “Yaxshilik va yomonlik haqida ertak” hamda “Maqollarda jamlangan hikmat” kabi mashg‘ulotlar milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodiga tayangan holda tashkil etilgani o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tasavvurlarini o‘zlariga tanish madaniy kontekst orqali qayta ishlashga imkon berdi. Bu jihat, ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida psixokorreksion ishning samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin, chunki xorijiy metodikalarni mahalliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olmagan holda mexanik tarzda joriy etish ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturning konseptual asoslarini va uning empirik samaradorligini yoritishga imkon berdi. Dastur kognitiv, affektiv va konativ sohalarni izchil qamrab oluvchi 8 ta mashg‘ulot asosida tuzilgan bo‘lib, uning markazida refleksiv empatiya, ijtimoiy perseptsiya va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish yotadi.

Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhda altruizm ko‘rsatkichining ishonchli darajada oshganini ($t=2,98$; $p<0,01$) va egoizm ko‘rsatkichining ishonchli darajada kamayganini ($t=2,98$; $p<0,01$) ko‘rsatdi, nazorat guruhida esa bunday o‘zgarishlar statistik ahamiyatga ega bo‘lmadi. Bu natijalar tuzilgan psixokorreksion dasturning nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi hamda uni Ichki ishlar vazirligi tizimidagi boshqa akademik litseylarda ham qo‘llash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Amaliy tavsiyalar. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida faoliyat yurituvchi psixologlarga o‘quv yili davomida o‘quvchilarning egoizm va altruizm ko‘rsatkichlarini “Dispozitsion egoizm” va “Altruizm-egoizm” so‘rovnomalari asosida muntazam monitoring qilib borish tavsiya etiladi. Egoizm ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar bilan mazkur maqolada taqdim etilgan 8 bosqichli psixokorreksion dastur asosida guruhiy mashg‘ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotchi psixologlar uchun muhim jihatlardan yana biri — dasturni joriy etishda o‘quvchilar bilan ishonchli psixologik muhit yaratishdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘zlarining ichki kechinmalarini faqat ular xavfsiz va hukm qilinmaydigan muhitda his qilgandagina ochiq ifoda etadilar. Shu sababli mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan oldin guruh a’zolari o‘rtasida ishonch va hurmatga asoslangan munosabatni shakllantirishga alohida vaqt ajratish tavsiya etiladi.

Litsey psixologlari tayyorgarligida transakt tahlil, refleksiv empatiya va ijtimoiy perseptsiyani rivojlantirish texnikalari bo‘yicha maxsus seminar-treninglar tashkil etish, shuningdek dastur samaradorligini nafaqat qisqa muddatli, balki 6–12 oylik oraliqda ham qayta baholab borish tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu borada muallifning ilgari ishlab chiqilgan texnologik yondashuvlaridan ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ota-onalari bilan maslahat ishlarini olib borish, oilaviy tarbiya uslubining o‘quvchidagi egoistik yoki altruistik ustanovkalar shakllanishiga ta’sirini hisobga olish zarur.

Kelgusi tadqiqotlarda dastur samaradorligini bir nechta akademik litseylar miqyosida, kattaroq tanlanma asosida va uzoq muddatli (longityudinal) kuzatuv orqali sinab ko‘rish, shuningdek qiz va o‘g‘il o‘quvchilar o‘rtasidagi mumkin bo‘lgan farqlarni alohida tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu esa dasturni Ichki ishlar vazirligi tizimidagi barcha akademik litseylar amaliyotiga joriy etish uchun yanada mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismoilov A.U. O‘quvchilarda shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari (Ichki ishlar vazirligi akademik litsey misolida): Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2025. – 145 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Available at: https://lex.uz
3. Якобсон П.М. Психология чувств и мотивации. – М.: Институт практической психологии, 1998. – 304 с.
4. Муздыбаев К. Эгоизм личности // Психологический журнал. – 2000. – №2. – С. 27–39.
5. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – СПб.: Питер, 2008. – 184 с.
6. Буртовая Н.Б. Методы коррекции эгоцентризма в подростковом возрасте и решение проблемы социальной дезадаптации // Вестник ТГПУ. – 2009. – №11. – С. 96–101.
7. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. – М.: Прогресс, 1988. – 400 с.
8. Левит Л.З. Эгоизм, личностная уникальность, нарциссизм: сходство и различия // Педагогическое образование в России. – 2013. – №4. – С. 212–225.
9. Atabayeva N.B. Shaxsda altruizm rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2020. – 154 b.
10. Ismoilov A.U. Objective and Subjective Factors Affecting the Development of Personal and Professional Training of Academic Lyceum Pupils // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. – Volume 02, Issue 09, 2024. ISSN (E): 2994-9521. – P. 41–44. Available at: https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje
11. Batson C.D. The Altruism Question: Toward a Social-Psychological Answer. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1991. – 226 p.
12. Потёмкина О.Ф. Диагностика социально-психологических установок личности в мотивационно-потребностной сфере. – М.: Смысл, 1991. – 29 с.